

RASMIY USLUBDAGI MATNLARNING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ulashmurodova Shahina Dilshodovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Tarjimonlik fakulteti, 2401- guruh talabasi

Yo'ldoshev U.R.

Ilmiy rahbar. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Tarjimonlik fakulteti dekani

Annotatsiya. *Ushbu maqola rasmiy uslubdagi matnlarning morfologik xususiyatlarini tahlil qiladi. Fe'llar, otlar, qo'shimchalar va majhul nisbatning o'rnini, shuningdek qat'iylik va obyektivlikka alohida e'tibor qaratiladi.*

Kalit so'zlar: *rasmiy uslub, morfologiya, fe'l, ot, qo'shimcha, majhul nisbat, obyektivlik.*

Аннотация. *В статье анализируются морфологические особенности текстов официального стиля. Особое внимание уделено глаголам, существительным, аффиксам, страдательному залогу, строгости и объективности.*

Ключевые слова: *официальный стиль, морфология, глагол, существительное, аффикс, страдательный залог, объективность.*

Annotation. *The article analyzes the morphological features of the official style. Special attention is given to verbs, nouns, affixes, the passive voice, strictness, and objectivity.*

Keywords: *official style, morphology, verb, noun, affix, passive voice, objectivity.*

Til uslublari ichida rasmiy uslub o'zining qat'iyligi, aniqligi va mantiqiyliги Bu uslub davlat hujjatlari, qonunlar, nizomlar va boshqa rasmiy yozishmalarda qo'llaniladi. Rasmiy uslubning morfologik xususiyatlarini o'rganish tilshunoslikdagi muhim masalalardan biri bo'lib, bu til uslubining tuzilishi, mazmuni va vazifasini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Rasmiy uslubdagi matnlar lo'nda, mazmunan aniq va ko'pincha standartlashtirilgan bo'lib, ularning asosiy vazifasi hujjatning rasmiylik darajasini oshirish va uning tushunarliqligini ta'minlashdir. Morfologik tahlil rasmiy uslubning asosiy tuzilmalari va ularning hujjatlar yaratishdagi ahamiyatini ochib beradi. Mazkur uslub morfologiyasi, xususan, majhul nisbat shakllari, ot va fe'l shakllarining o'ziga xosligi va affikslarning funksiyasini aniqlash ilmiy va amaliy jihatlardan dolzarbdir.

Rasmiy uslub jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlari tomonidan tushunarli bo'lishi uchun qat'iy qoidalarga bo'yunadi. Ushbu uslubdagi matnlar bir xil standartlarga asoslanadi va shaxsiy fikr yoki hissiyotlardan xalos bo'ladi. Matnda faqat mazmunan kerakli va hujjatning mazmununi to'liq aks ettiruvchi so'zlar ishlatiladi. Hujjatlarda shaxsiy nuqtai nazardan ko'ra, holatning obyektiv bayoni ustun qo'yiladi. Matn tuzilishi aniq qismlarga ajratiladi, ular: kirish qismi, asosiy mazmun va xulosa.

Rasmiy uslubdagi matnlarning grammatika va morfologiya jihatidan o'ziga xos jihatlari mavjud. Ulardan birinchisi bu fe'l shakllari hisoblanadi. Amaliyotda

“-sin”, “-ilsin” shakllaridan keng foydalaniladi: “Tasdiqlansin”, “E'lon qiling” kabi. Majhul nisbatda esa “Ko'rib chiqildi”, “Tasdiqlandi” ko'rinishidagi shakllar qo'llaniladi. Ikkinchisi bu otning ko'plik qo'shimchasi bo'lib, rasmiy uslubda bu qo'shimchadan keng foydalaniladi. “Hujjatlar”, “Hisobotlar” shaklida. Keyingisi qat'iylik hisoblanib, matnda so'zlar qat'iy huquqiy me'yorlarga mos tanlanadi. Masalan “ijro”, “amalga oshirish” kabi. Ushbu jihatlar hujjatlarning izchil va rasmiy tus olishini ta'minlaydi.

Otlarning o'ziga xos xususiyatlari. Otlar rasmiy matnlarning markaziy elementlaridan biri bo'lib, ular bir necha xususiyatlar bilan ajralib turadi. Misol uchun, aniqlovchi sifatida, ya'ni, rasmiy uslubda otlar hujjatning mohiyatini aniqlashga xizmat qiladi: “Shartnoma shartlari bajarildi.”. Bu gapda “nima” so'rog'iga javob bo'ladigan “shartnoma” oti aniqlovchi vazifasini bajargan.

Fe'llarning o'ziga xosligi. Fe'llar rasmiy uslubdagi matnlarda harakatni ifodalovchi asosiy vositalardir. Amalga oshirilga harakatlar majhul nisbatda fe'llar orqali ifodalanadi: “ko'rib chiqildi”, “ijro etildi” kabilar bunga misol bo'la oladi. “Tasdiqlansin”, “E'lon qilinsin” ko'rinishidagi gaplar va gap bo'laklari buyruq tusidagi fe'llar hisoblanadi. Hujjatning aniq maqsadini ifodalash uchun ham “Qonun qabul qilindi” kabi fe'l shakllaridan foydalaniladi. Fe'l natijaviy shaklda ham ifodalanadi, ya'ni, harakatning natijasini ochib beradi: “Yakunlandi”, “O'rganildi”.

Yordamchi so'zlarning roli. Yordamchi so'zlar rasmiy uslubdagi matnlarni mazmunan boyitishga xizmat qiladi. Teng bog'lovchi hisoblanadigan “va”, “yoki”, “ammo” kabi so'zlar matnning izchil bo'lishini ta'minlaydi. “Kerak”, “lozim”, “majbur” kabi modal so'zlar qat'iylikni ta'minlaydi. “Bunda”, “shuningdek” kabi so'zlar matnning mantiqiy izchilligini kuchaytiradi va matndagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlaydi.

Majhul nisbatning rasmiy uslubdagi matnda morfologik tahlili. Majhul nisbat rasmiy uslubdagi matnlarning ajralmas va muhim qismidir. Majhul nisbat orqali shaxsni chetlab o'tish: Rasmiy matnlarda shaxsni emas, bajariladigan harakatni ta'kidlash ustuvor hisoblanadi. Masalan, “Farmon tasdiqlandi”, “Takliflar ko'rib chiqildi” kabi jumalalarda kim tomonidan amalga oshirilgani ko'rsatilmaydi. Bu hujjatning rasmiy va obyektiv bo'lishini ta'minlaydi. Formal shakllar: Majhul nisbat fe'lining o'ziga xos qo'shimchalari

orqali hosil qilinadi. Masalan, o'zbek tilida “-inmoq”, “-ilmoq” qo'shimchalari qo'shiladi: “tasdiqlansin”, “amalga oshirilmoqda”. Majhul nisbat yuqori darajadagi qat'iylikni ta'minlaydi. Bunda har bir jumla hujjat talablariga mos keladigan tarzda quriladi. Bu holat xatolik ehtimolini minimallashtiradi va o'quvchiga aniq ma'lumot yetkazadi. “Loyihalar tasdiqlandi”, “tartib-qoidalar o'rganildi”, Majlis qarorlari ijro etilmoqda” kabi.

Terminologik otlarning o'rni va vazifasi. Terminologik otlar rasmiy uslubdagi matnlarning asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi. Har bir ot bir ma'no ifodalaydi, aniq ma'no yuklaydi va matnni yanada aniq qiladi. Masalan, “Hisobotlar”, “Farmoyishlar”, “Qonunlar”. Rasmiy uslub matnlarida obyektivlikni ta'minlash uchun shaxsiy hissiyotlardan xoli bo'lgan otlar tanlanadi: “Ijro qoidalari”, “Majburiyatlar” kabi. Terminlarning o'rni. Har bir terminning rasmiy uslub matnlarida o'z vazifasi va roli bo'ladi. Masalan “Farmon” - bu huquqiy buyruq, “Qonun” - normativ hujjat, “Shartnoma” - ikki yoki undan ortiq tomonlar o'rtasidagi kelishuv. Otlarning ma'nosi va grammatik shakllari qat'iy qoidalarga bo'ysunadi. Terminologik otlar rasmiy hujjatlarning mazmunini chuqurlashtirish va tushunishni osonlashtirish uchun muhimdir.

Rasmiy uslubdagi matnlarda affikslarning vazifasi. Affikslar matnni morfologik jihatdan boyitishda muhim rol o'ynaydi. Affikslar orqali yangi so'zlar hosil qilinadi, masalan, “-lik” qo'shimchasi bilan “Rahbarlik”, “Tashabbuskorlik” kabi tushunchalar yaratiladi. Matnning izchil va tushunarli bo'lishi uchun bir xil qo'shimchalar ishlatiladi va bu orqali morfologik bir xillik ta'minlanadi. “-dor” affiksi bilan “mas'uliyatdor, hujjatdor” kabi so'zlar: “-chi” qo'shimchasi bilan “tahlilchi, muvofiqlashtiruvchi” kabi bir xil affikslardan tashkil topgan so'zlar yasaladi. Qo'shimchalar matnning normativ bo'lishini ta'minlaydi va uning qabul qilinishini osonlashtiradi.

Rasmiy uslubdagi matnlar o'ziga xos morfologik xususiyatlarga ega. Majhul nisbat, terminologik otlar, va affikslarning ishlatishi bu matnlarning qat'iy, aniq va obyektiv bo'lishiga yordam beradi. Ushbu uslubga xos qoidalarga rioya qilish hujjatlarning xalqaro va mahalliy darajada tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Rasmiy uslubning morfologik tahlili uning hujjatlar tayyorlashdagi ahamiyatini ochib beradi va bu jarayonni yanada samarali tashkil etish imkonini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev N. “Til uslublari nazariyasi”.
2. Yusupov A. “Rasmiy til va uning xususiyatlari”.
3. Rashidov O. “Hujjatlar tili va uning grammatikasi”.